

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XUSUSAN NAVOIY VILOYATI
HUDUDIDA TARQALGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR TURLARI, ULARNI
MUHOFAZA QILISH CHORALARI VA ULARNI MADANIYLASHTIRISH
HAMDA KO'PAYTIRISH USULLARI.

Navoiy davlat universiteti
Biologiya va qo'shimcha tabiiy
fanlar yo'nalishi 4-kurs talabasi -
Majidov Mansur
mansurmajidov001@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi, xususan, Navoiy viloyati hududida tarqalgan dorivor o'simliklarning turlari, ularning ekologik ahamiyati, muhofaza qilish choralari va madaniylashtirish usullari tahlil qilinadi. Navoiy viloyati qurg'oqchil iqlim sharoitiga ega bo'lishiga qaramay, bu hududda ko'plab dorivor o'simliklar – shuvoq (*Artemisia*), yantoq (*Alhagi*), qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra*), qora sedana (*Nigella sativa*) va boshqa noyob flora vakillari uchraydi. Tadqiqotda ushbu o'simliklarning tabiiy populyatsiyasiga antropogen ta'sir, ulardan farmatsevtika va xalq tabobatida foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan. Shuningdek, dorivor o'simliklarni madaniylashtirish, ya'ni ularni sun'iy ravishda yetishtirish va ko'paytirish usullari (vegetativ va generativ ko'paytirish, agrotexnik tadbirlar) haqida ma'lumot beriladi.

Ishda, shuningdek, dorivor o'simliklarning genofondini saqlash va tabiiy resurslardan barqaror foydalanish strategiyalari, ularni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro va mahalliy qonunchilik me'yorlari tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot natijalari dorivor o'simliklardan samarali foydalanish, ularning madaniy agroekotizimlarga kiritilishi va ekologik muvozanatni saqlashga hissa qo'shadi.

Kalit soʻzlar: qizil kitob, dorivor oʻsimliklar, Navoiy viloyati florasi, muhofaza qilish, madaniylashtirish, koʻpaytirish usullari, ekologik barqarorlik, farmatsevtika, xalq tabobati, genofondni saqlash, agrotexnika.

Абстрактный:

Виды лекарственных растений, экологическая безопасность, методы борьбы и выращивания Республики Узбекистан, Навоийская область Узбекистана. Несмотря на засушливый климат Навоийской области, в этой местности произрастает множество лекарственных растений – полынь (*Artemisia*), янток (*Alhagi*), солодка (*Glycyrrhiza glabra*), черный кедр (*Nigella sativa*) и другие редкие растения. В ходе исследований изучено антропогенное влияние на природную популяцию этих растений, их использование в фармацевтике и народной медицине, представлена информация о выращивании лекарственных растений, т.е. способах их искусственного выращивания и размножения (вегетативное и генеративное размножение, агротехнические препараты).

В работе анализируются стратегии сохранения генофонда лекарственных растений и восстановления ресурсов, материалы для их использования, законодательные нормы. Эти исследования будут способствовать эффективному производству лекарственных растений, их включению в культивируемые агроэкосистемы и поддержанию экологической чистоты.

Ключевые слова: красная книга, лекарственные растения, флора Навоийской области, очистка, выращивание, методы размножения, экологическая безопасность, фармацевтика, народная медицина, сохранение генофонда, агротехника.

Abstract:

Types of medicinal plants, ecological safety, control and cultivation methods of this Republic of Uzbekistan, Navoi region of Uzbekistan. Despite the arid climate of

Navoi region, this area has many medicinal plants - wormwood (*Artemisia*), yantok (*Alhagi*), licorice (*Glycyrrhiza glabra*), black cedar (*Nigella sativa*) and other rare flora. Anthropogenic influence on the natural population of these plants, their use in pharmaceuticals and folk medicine was studied in the research. , information is provided on the cultivation of medicinal plants, i.e., methods of their artificial cultivation and propagation (vegetative and generative propagation, agrotechnical products).

In work, analyzes of medicinal plant gene pool conservation and resource recovery strategies, materials for their use, and legislative norms. This research will contribute to the efficient production of medicinal plants, their incorporation into cultivated agroecosystems and maintenance of ecological cleanup.

Key words: red book, medicinal plants, flora of Navoi region, cleaning, cultivation, reproduction methods, ecological safety, pharmaceuticals, folk medicine, preservation of gene pool, agrotechnics.

Kirish

Tabiat inson hayoti uchun bebaho ne'mat bo'lib, uning boyliklari orasida dorivor o'simliklarning o'rni beqiyosdir. Azaldan insoniyat o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlaridan foydalanib kelgan. Ilmiy tadqiqotlar ham ko'rsatib turibdiki, ko'plab kasalliklarni davolashda dorivor o'simliklardan foydalanish kimyoviy dori vositalariga qaraganda xavfsizroq va samaraliroq bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham bugungi kunda farmatsevtika sanoatida dorivor o'simliklarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Ayniqsa yoshi katta odamlar dorilardan ko'ra dorivor o'simliklarni afzal ko'radilar. O'zbekiston Respublikasi o'zining boy florasi bilan ajralib turadi. Mamlakatimiz hududida turli xildagi dorivor o'simliklarni uchratishimiz mumkin. Xususan Navoiy viloyati esa o'zining quruq iqlimi, yarim cho'l va cho'l ekotizimlari tufayli o'ziga xos o'simlik olamiga ega. Shuning bilan birga ko'pchilik o'simliklar aynan inson tomonidan o'zlashtirilmagan hududlarda keng miqyosda tarqalgan. Bugungi kunda dorivor o'simliklarning yo'qolib ketish xavfi ortib bormoqda. Hududning ekologik

sharoitlari, yerlarning sho'rlanishi, noqonuniy yig'ib olish va boshqa omillar natijasida ko'plab noyob o'simliklar kamayib ketmoqda. Shu sababli, ularni muhofaza qilish, sun'iy yetishtirish va madaniylashtirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu kabi bazi noqulay sharoit va antropogen omillar ta'sirida ko'pgina dorivor o'simliklarni himoya qilishga to'g'ri kelmoqda.

Asosiy qism

Umuman olganda hozirgi kunda dorivor o'simliklar dunyo miqiyosida xususan Markaziy Osiyo hududlarida alohida ahamiyatga egadir. Bugungi kunga kelib yer yuzining 3/1 qismida qurgoqchilik hokum surmoqda bu esa ko'pchilik o'simliklar shu bilan birga dorivor o'simliklar hayoti uchun ham cheklovchi omil bo'lib kelmoqda. Dorivor o'simliklar florasiga boyligi jihatidan alohida ahamiyatga egadir. Navoiy viloyati alohida iqlim quruq va issiq bo'lgan yarim cho'l hududlar sirasiga kirsada dorivor o'simliklarga boyligi jihatidan alohida o'rin egallaydi. Hozirgi kunga kelib cho'l mintaqasida uchrovchi hamda yuqori dorivorlik xususiyatiga ega bo'lgan quyidagi o'simlik turlari bilan tanishib chiqamiz:

Shuvoq (*Achillea millefolium*)- murakkabguldoshlar oilasiga mansub o'simliklar turkumi. Asosan ko'p yillik bo'lib kamdan kam bir yillik turlari uchraydi. Hozirgi kunda shuvoqning 400 turi (ba'zi ma'lumotlarga qaraganda 250) ma'lum. O'rta Osiyo, Qozog'iston va Zakavkazyening cho'l va yarim cho'l, dashtlarida ko'p uchraydi. O'zbekistonda, asosan, bir yillik shuvoq yoki burgan, ko'p yillik oddiy shuvoq yoki ola ermon, achchiq shuvoq yoki ermon, sivers shuvog'i yoki sassiq alaf, sug'd shuvog'i, oq shuvoq va boshqalar turlari uchraydi. Shuvoq bu o'zining shifobaxsh xususiyatlari bilan tanilgan o'simlik bo'lib, qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda ishlatilgan. Shuvoq o'simligi ko'plab foydali moddalarga ega bo'lib, uning tarkibida taninlar, flavonoidlar, eter moylari va vitaminlar mavjud. Shu sababli hozirgi kunda dorivor o'simliklar orasida shuvoqning o'rni beqiyosdir.

Yantoq (Alhagi) - dukkakdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik begona o'tlar turkumi. O'rta Osiyoning dasht, cho'l, chala cho'llarida hamda Rossiyaning Yevropa qismidagi chala cho'l rayonlarida 5 turi ma'lum. O'zbekistonda yantoqning 2 turi: soxta yantoq va qirg'iz yantog'i turi o'sadi. Bo'yi 40—110 sm, tik, sershox, ildizi kuchli rivojlangan, yer osti suvlarigacha yetib boradi (10 m va undan ortiq). Shuning uchun ham xalq orasida bu o'simlikning “ boshi olovda oyog'i suvda ” deyiladi. Barg qo'ltig'ida qattiq tikanlari bor. Barglari cho'ziq, nashtarsimon, barg bandi kalta, ketma-ket joylashgan. Gullari mayda, qizil yoki pushti. May – sentyabrda gullaydi, avgust – oktyabr oylarida urug'laydi. Yantoqning yer ustki qismi gullagan paytda yig'ib olinadigan qismi va ildizi xalq tabobatida turli damlamalar, qaynatmalar va ekstraktlar tayyorlashda qo'llaniladi. Masalan, ildizdan tayyorlangan qaynatma qon oqishini to'xtatishda, bakterial infeksiyalarga qarshi, oshqozon-ichak tizimini tinchlantirishda qo'llaniladi; gullardan tayyorlangan damlamalar esa yo'talni yengillashtirish va allergik simptomlarni kamaytirishda ishlatiladi.

Qizilmiya (Glycyrrhiza glabra) - dukkakdoshlarga mansub ko'p yillik ildizpoyali begona o't. Poyasi sershox, dag'al, bo'yi 40-150 sm, tik o'sadi. Barglari murakkab, toq patsimon, uzunchoq. Gullari binafsha rang, shoda to'pgulga yig'ilgan. Mevasi cho'zinchoq dukkak. Aprel-iyunda gullab mevalaydi. Urug'i va vegetativ usulda ildizpoyalaridan ko'payadi. Ildiz sistemasi kuchli rivojlanadi, 3 m chuqurlikkacha kirib boradi. Ildizpoyalaridan yer usti novdalari hosil bo'ladi, urug'i qattiq qobiqli, 30-35° C haroratda ko'karadi. O'rta Osiyoning deyarli hamma hududlarida, jumladan, Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo, Navoiy viloyatlarida tarqalgan. Hamma chopiqtalab ekinlar, ayniqsa, beda va donli ekinlar orasida uchraydi, sug'orish kanallari bo'ylari, ariq yoqalari, bog' va uzumzorlarda o'sadi. Qizilmiya ildizi (Glycyrrhiza glabra) o'zining shirin ta'mi va keng ko'lamli sog'liq uchun foydalari uchun an'anaviy tibbiyotda asrlar davomida ishlatilgan mashhur o'tdir. Yallig'lanishga qarshi, mikroblarga qarshi va tinchlantiruvchi xususiyatlari bilan mashhur qizilmiya ildizi odatda ovqat hazm qilish tizimini qo'llab-quvvatlash, nafas olish kasalliklarini engillashtirish va teri muammolarini davolash uchun ishlatiladi.

Qora sedana (*Nigella sativa*) - Qora sedana kalsiyga boy ekani bilan ajralib turadi. Uning 100 grammida ushbu mikroelementning deyarli kunlik me'yori (1000 mg) mujassam bo'ladi. Shuningdek, tarkibidagi rux moddasi suyaklarni mustahkamlanishiga hissa qo'shadi. Sedana "yomon" xolesterinlarni kamaytirish xususiyatiga ega bo'lgan antioksidantlarning koni. Qolaversa unda qon bosimini nazorat qiluvchi magniy ham mavjud. Terini mustahkamlaydigan, uning elastikligini oshirishga yordam beradigan E vitamini mavjud ekani sabab ham terini sedana yog'i bilan massaj qilish tavsiya qilinadi. Bundan tashqqari sedana novvoychilikda.

Hozirgi kunga kelib dorivor o'simliklar turli xil omillar tasirida ovz tarqalgan hududlarida kamayib bormoqda va hattoki yo'qolish arafasidagi "Qizil kitob" ga kiritilgan turlari ham talaygina. Bunday omillar turli xil iqlim o'zgarishlari, tabiiy ofatlar va hozirgi kunda eng katta zarar beruvchilar hisoblangan antropogen omillar sabab bolmoqda. Shu sababli yo'qolib borayotgan o'simliklarni muhofazaga olish uchun mamlakatimiz tomonidan bir qancha qarorlar va deklaratsiyalar qabul qilinmoqda. Xususan 1992-yil 9-dekabrda «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida», 1993-yil 7-mayda «Alohida muhofaza qilinadigan hududlar to'g'risida» va nihoyat 1997-yil 26-dekabrda «O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish to'g'risida» qonunlar qabul qilindi. Ushub qonunlarda tabiiy sharoitda o'sadigan o'simliklar dunyosini shuningdek, takror etishtirish va genetik fondini saqlash uchun ekib o'stiriladigan yovvoyi o'simliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlar to'g'risida boradi.

2-modda O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi munosabatlar to'g'risida qonun hujjatlarini asosiy vazifalari quyidagilardir:

Floraning tur bo'yicha tarkibini va genetik fondini tabiiy sharoitlarda saqlab qolish. Tabiiy o'simlik jamoalarining va yovvoyi o'simliklar o'sadigan muhitning bir butunligini saqlab qolish;

O'simlik dunyosidan oqilona foydalanish va uni takror etishtirishni ta'minlash, yuridik va jismoniy shaxslarni o'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi faoliyatini huquqiy tartibga solish.

Yuqorida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, ko'paytirish hamda tashqi omillar tasiriga moslashish uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlarni yaratib berishga qaratilgan islohatlardir. Shu bilan birga dorivor o'simliklarni madaniylashtirish hamda ularni suniy ekosistemalarda o'stirish ham hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Mamlakatimizda hozirgi kunda dorivor o'simliklarni madaniylashtirish yuzasidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish hamda qayta ishlashni tashkil etish, dorivor o'simliklarning madaniy plantatsiyalarini barpo etishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, kasalliklarning oldini olish va davolashda dorivor o'simliklarni keng qo'llash maqsadida:

2022-2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda dorivor o'simliklar plantatsiyalarini barpo etish uchun yer maydonlarini ajratishning yig'ma maqsadli ko'rsatkichlari.

2022-2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarida dorivor o'simliklar plantatsiyalarini barpo etishning maqsadli ko'rsatkichlari.

2022-2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar o'rmon fondi yerlarida dorivor o'simliklar plantatsiyalarini barpo etishning maqsadli ko'rsatkichlari.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak hozirgi kunga kelib Markaziy Osiyo xususan Navoiy hududida xalq tabobadida muhim o'rin egallagan dorivor o'simliklarning mavjudligi hamda ularni himoya qilish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar ushbu hududda uchraydigan o'simliklarni yanada rivojlanishi va keng tarqalishiga zamin yaratib bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'.E.Xo'janazarov, Sh.Yakubjonova –Toshkent 2018.
2. Xo'janazarov O'.E., Muxamedjanova D. "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish" TDPU Toshkent 2016. -209 bet
3. <https://president.uz/oz/lists/view/5212>
4. universalpublishings.com
5. Q.X. Xaydarov, Q.X. Xojimatov "O'zbekiston o'simliklari" Toshkent 1992.